# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 7-oktabr, № 211 (8554) Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# O'ZBEKISTON VA ROSSIYA: STRATEGIK SHERIK VA ISHONCHLI DO'ST

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo'lib turibdi.**





Davlatimiz rahbari rasmiy tashrif dasturining ikkinchi kunida Moskva shahrining Aleksandr bog'idagi Noma'lum askar qabriga gulchambar qo'ydi.

Kreml devorlari yonida joylashgan ushbu yodgorlik Ikkinchi jahon urushida Vatan himoyasida mardlarcha jang qilgan va halok bo'lgan millionlab askarlar xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan, ajdodlarimiz jasorati va matonati ramzidir.

O'zbekiston Prezidenti insoniyatning tinch kelajagi yo'lida jonini fido qilgan qahramonlar xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Kremlda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuv avvalida Shavkat Mirziyoyev Vladimir Putinga har doimgidek samimiy qabul va mehmondo'stlik uchun minnatdorlik bildirib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarining bugungi holatini yuksak baholadi.

Tomonlar O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning jadal sur'atini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Ushbu oliy darajadagi tashrifga tayyorgarlik doirasida bir qator tadbirlar, shu jumladan, Hukumat rahbarlari darajasidagi qo'shma komissiyaning to'rtinchi yig'ilishi, tibbiyot, rektorlar va hududlar forumlari muvaffaqiyatli o'tkazilgani ta'kidlandi.

Sanoat kooperatsiyasi jadal rivojlanmoqda. O'zbekistonda Rossiya investitsiyalari hajmi oshib bormoqda.

Prezidentlar hududlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish muhim ekanini qayd etdilar. 4-oktabr kuni Qozon shahrida o'tgan uchinchi Hududlararo hamkorlik forumi yakunida 3,5 milliard dollarlik bitim va shartnomalar imzolandi.

Hududlar kesimida sanoat kooperatsiyasi bo'yicha yil bo'yi o'zaro tashriflar reja-jadvalini o'z ichiga olgan "Yo'l xaritasi"ni tayyorlash yuzasidan kelishuvga erishildi.

Uchrashuv chog'ida Rossiyada mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston fuqarolari uchun ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash masalalari ham batafsil ko'rib chiqildi.

Kuni kecha Butunrossiya ko'rgazma markazida O'zbekistonning yangilangan pavilyoni ochildi.

Prezidentlar tadbirlarga boy va serqirra madaniy-gumanitar hamkorlikni yuqori baholadilar. Muhim madaniy voqealar: Moskvada "Lazgi" milliy baleti premyerasi, O'zbekiston madaniyati kunlari, mamlakatimizda esa "Rossiya fasllari" loyihasi doirasidagi tadbirlar bo'lib o'tdi.

Davlat rahbarlari 2024-2025-yillarga mo'ljallangan Madaniy hamkorlik dasturini qabul qilishga kelishib oldilar.

Tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Samimiy va do'stona o'tgan uchrashuv yakunida tomonlar keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash borasidagi intilish qat'iy ekanini yana bir bor tasdiqladilar.

Ikki davlat yetakchilari tor doiradagi uchrashuvdan so'ng muzokaralarni rasmiy delegatsiyalar a'zolari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirdilar.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston — Rossiya munosabatlarining barcha yo'nalishlari bo'yicha hamkorlik izchil kengayib borayotgani va salmoqli darajada yuksalayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohalaridagi aniq yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat natijalari yuqori baholandi, ular sifat jihatdan o'zgargani ta'kidlandi.

Sanoat kooperatsiyasini, eng avvalo, mashinasozlik, metallurgiya, energetika, qayta ishlash, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlarda kengaytirish bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi qo'shma guruh tuzilgan.

Muzokaralarda madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan bir qator boshqa kelishuvlarga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin Keng ko'lamli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish to'g'risida qo'shma bayonot qabul qildilar.

Davlat rahbarlari huzurida ikki mamlakat hukumatlari va vazirliklari tomonidan imzolangan 10 ta hujjat almashildi. Samarqand shahrida Rossiya Federatsiyasining bosh konsulxonasini ta'sis etish, vakolatli iqtisodiy operator institutlarini o'zaro tan olish, "Agroekspress" tezkor temir yo'l tashuvlarini tashkil etish loyihasini amalga oshirish to'g'risidagi bitimlar, Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2024-2025-yillar uchun hamkorlik dasturi, shuningdek, transport, ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohalarida hamkorlik bo'yicha hujjatlar shular jumlasidan.

Ushbu kelishuvlar O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi hamkorlikni bir qator istiqbolli yo'nalishlarda yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Prezidenti Vladimir Putin muzokaralardan so'ng ommaviy axborot vositalari vakillari uchun brifing o'tkazdilar.

Yetakchilar sermazmun muzokara o'tkazganlari, ularda O'zbekiston — Rossiya munosabatlarining barcha yo'nalishlari batafsil muhokama qilingani, o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi istiqbollari belgilab olinganini ta'kidladilar. Ikki tomonlama ko'p qirrali hamkorlik yuqori sur'atda ekanini, barcha sohalarda salmoqli natijalarga erishilayotganini qayd etdilar.

O'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish va uni yangi marralarga yetkazish borasidagi intilish qat'iy ekani tasdiqlandi.

O'zbekiston Prezidenti mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikda nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlar barqaror o'sib borayotgani, balki sifat jihatdan o'zgarishlar ro'y berganiga e'tibor qaratdi. Xususan, ilgari o'zaro tovar ayirboshlash tarkibining aksariyatini xomashyo tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda savdoning 70 foizi yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga to'g'ri kelmoqda.

Investitsiya sohasida ham yengil va kimyo sanoati, avtomobilsozlik va mashinasozlik, sog'liqni saqlash va farmatsevtika tarmoqlarida innovatsion loyihalar salmog'i ortib borayotgani kuzatilmoqda.

Rossiya fuqarolari orasida O'zbekistonning turistik jozibadorligi oshayotgani qayd etildi. Rossiyalik sayyohlar oqimi yil boshidan buyon 20 foizga oshgani ko'rsatib o'tildi.

Tomonlar 2024-2025-yillarda Madaniyat, san'at va adabiyot kunlarini o'zaro tashkil etishga kelishib oldilar.

Madaniyat, ta'lim va tibbiyot sohalarida ikki tomonlama aloqalarni yanada kengaytirish muhimligi aytildi.

Prezidentlar an'anaviy va yangi tahdid hamda xatarlarga, eng avvalo, terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik va narkotrafikka qarshi kurashish masalalari diqqat markazida qolayotganini ta'kidladilar.

Tomonlar erishilgan kelishuvlar va imzolangan hujjatlar strategik sheriklik va ittifoqchilikni yanada rivojlantirishga, O'zbekiston va Rossiya xalqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

O'zbekiston Prezidenti Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Mixail Mishustin bilan muzokara o'tkazdi.

Uchrashuv Rossiya Hukumatining Muvofiqlashtirish markazida bo'lib o'tdi.

Ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Tovar ayirboshlash sur'atini saqlab qolish va kooperatsiya aloqalarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish bo'yicha ishlarni samarali muvofiqlashtirish uchun qo'shma Ishchi guruhi tuzilgan.

Raqamlashtirish, sog'liqni saqlash, ta'lim sohalarida hamda O'zbekistonda elektron savdoni joriy qilish bo'yicha loyihalarni birgalikda amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Ikki mamlakat hududlarining amaliy sherikligini yanada rivojlantirish va uni aniq loyihalar bilan boyitish uchun keng imkoniyatlar borligi qayd etildi.

Shaharsozlik, uy-joy fondini renovatsiya qilish sohalarida tajriba almashishni yo'lga qo'yishga kelishib olindi.

Muzokaralar yakunida Prezidentimiz Rossiya Hukumati Raisini rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga kelishga taklif etdi.

So'ng O'zbekiston delegatsiyasi Rossiya Hukumatining Muvofiqlashtirish markazi bilan tanishdi. Mixail Mishustin davlatimiz rahbariga ijro hokimiyati organlarining tezkor va kelishilgan harakatlarini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan ushbu doimiy faoliyat yurituvchi idora faoliyati to'g'risida batafsil axborot berdi.

**O'zA.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

Rossiya OAV:

## O'ZBEKISTON BILAN MUNOSABATLAR IZCHIL MUSTAHKAMLANIB, RIVOJLANIB BORAVERADI

*So'nggi kunlarda Rossiyaning yetakchi ommaviy axborot vositalarida Rossiya — O'zbekiston hamkorligi, shuningdek, mamlakatimizning zamonaviy taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilmoqda.*

### Aks sado

Xususan, **"Moskovskiy komsomoles"** gazetasida ekspert Yuriy Sigovning O'zbekiston — Rossiya munosabatlariga bag'ishlangan tahliliy maqolasi chop etildi.

Muallifning yozishicha, hozirgi o'ta beqaror va kelajakni oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan davrda eng yaqin geografik qo'shnilar o'rtasidagi do'stona, chinakam sheriklik va o'zaro manfaatli munosabatlar har qanday davlat tashqi siyosatining eng muhim elementlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu, ayniqsa, uzoq yillardan buyon yaqin siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni saqlab kelayotgan Rossiya va O'zbekiston kabi davlatlar uchun juda muhim.

"Mustaqil O'zbekiston uchun bu, birinchi navbatda, mamlakatning rasmiy Toshkent bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor barcha davlatlar bilan muvozanatli munosabat siyosati nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega", deyiladi maqolada.

Nashrda qayd etilishicha, O'zbekiston Prezidentining Rossiyaga so'nggi tashrifi, ayniqsa, samarali bo'lgan. U 2021-yil 19-noyabrda bo'lib o'tdi va natijada 18 ta qo'shma hujjat imzolandi. O'tgan yilning kuzida Rossiya Prezidenti O'zbekistonga tashrif buyurgan edi. Unda O'zbekiston va Rossiya o'rtasida keng qamrovli strategik sheriklik to'g'risidagi juda muhim deklaratsiya imzolandi. Joriy yilning 8-may kuni esa O'zbekiston Prezidenti G'alabaning 78 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etish doirasida Rossiya Prezidenti bilan uchrashuv o'tkazdi.

Shuningdek, maqolada rasmiy Moskva va Toshkent o'rtasidagi savdo-iqtisodiy sohadagi ikki tomonlama munosabatlar o'sib borayotgani, mintaqalararo hamkorlik faol rivojlanayotgani alohida qayd etilgan. Madaniy-gumanitar va ta'lim yo'nalishidagi sheriklik ham tobora mustahkamlanib bormoqda. Ta'kidlanishicha, O'zbekiston Markaziy Osiyoda Rossiyaning 14 ta yetakchi oliy o'quv yurti filiallari ochilgan yagona davlatdir.

"Rossiya va O'zbekiston o'rtasida turizm sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, — deya qayd etadi muallif. — O'tgan yilning mart oyida ikki davlat hukumatlari o'rtasida 20 ta qo'shma tadbirni o'z ichiga olgan sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha Reja imzolangan.

→ 2

## PARLAMENTLARARO ALOQALARNI KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

*Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi raisi Erkin Gadoyev Janubiy Koreya Milliy Assambleyasi Yer, infratuzilma va transport qo'mitasi deputatlari Chxve In Xo va Kim Chong Chje boshchiligidagi delegatsiya vakillari bilan uchrashdi.*

### Muloqot

Muloqot chog'ida tomonlar O'zbekiston va Janubiy Koreya geografik jihatdan bir-biridan uzoq masofada joylashgan bo'lsa-da, ularni ko'p yillik do'stlik va manfaatli hamkorlik rishtalari bog'lab turganligini alohida ta'kidladi.

Shuningdek, ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik va alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar, ayniqsa, parlamentlararo aloqalarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Xususan, Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi deputatlari mamlakatning bir qator korporatsiyalari O'zbekistonda avtomobil va temir yo'llar infratuzilmalarini rivojlantirishda faol ishtirok etishga qiziqish bildirayotganini aytib o'tdi.

Mehmonlar samimiy uchrashuv uchun minnatdorlik izhor qilib, Oliy Majlis Senati delegatsiyasini joriy yilda Janubiy Koreyaning Pusan shahrida bo'lib o'tadigan "EKSPO — 2030" butunjahon ko'rgazmasiga taklif etdi.

**"Xalq so'zi".**

## IMKONIYATI CHEKLANGANLAR MANFAATLARI — DOIMIY E'TIBORDA

*Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bugun dunyoda 1 milliarddan ortiq odamlar nogironlikdan aziyat chekadi. Bu — kurrai zamin aholisining 15 foizini tashkil etadi, degani.*

### Fikr

O'zbekistonda ham bunday insonlar soni kam emas. Bu esa shuni anglatadiki, ularga ta'lim berish, munosib va qulay sharoit hamda ish o'rinlari yaratish masalasi nihoyatda dolzarbdir.

Sir emas, ta'lim olish, ish topishda ko'p hollarda ular qiyinchilik va to'siqlarga duch keladi. Shularni inobatga olgan holda mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoyalash, to'siqsiz muhit yaratish, ularni jamiyatning to'laqonli a'zosi qilish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Aytish joizki, ushbu qatlam bandligini ta'minlash borasida bir qator ishlar ro'yobga chiqarildi. Nogironligi bor insonlarni ishga olgan ish beruvchilarga (byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir xodim uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari darajasida subsidiya ajratilmoqda.

→ 2



## Rossiya OAV:

# O'ZBEKISTON BILAN MUNOSABATLAR IZCHIL MUSTAHKAMLANIB, RIVOJLANIB BORAVERADI

← 1

Natijada joriy yilning olti oyida O'zbekistonga kelgan rossiyalik sayyohlar soni o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 1,9 barobarga oshib, 345 ming kishini tashkil etdi.

**"Argumenti i fakti"** haftalik gazetasi sahifalarida O'zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosatiga bag'ishlangan maqola bosildi.

Unda qayd etilishicha, taraqqiyot sur'ati oshib, global tahdid va o'zgarishlar jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi bosqichda O'zbekiston oldida turgan eng muhim vazifalardan biri yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, yoshlarga oid siyosatini samarali amalga oshirishdir. "Shu bois mamlakatda yoshlarning salomatligi, ijtimoiy ahvoli, ta'lim-tarbiya olishi va bandligini ta'minlash, ularning barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoit yaratishga tizimli ravishda katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda Yangi O'zbekiston o'g'il-qizlarining puxta bilim olishi, yetuk kadr bo'lishi borasidagi vazifalarni tizimli ravishda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilab olindi", deya ta'kidlangan mazkur maqolada.

"Argumenti i fakti"da, shuningdek, o'tgan yetti yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasiga asoslangan mustahkam me'yoriy-huquqiy baza va bu boradagi 100 dan ortiq hujjatlar asosida yaratilgan keng qamrovli tizimli yoshlar strategiyasi xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilayotgani hamda yoshlar siyosati mamlakat obro'sini mustahkamlayotgani ta'kidlangan.

Gazetada O'zbekistonda ijodiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etilganiga ham e'tibor qaratilgan. "Oliy o'quv yurtlari soni qariyb uch barobar ko'paytirilib, 210 taga yetkazildi. Maktab bitiruvchilarini oliy o'quv yurtlariga qabul qilish darajasi esa 9 foizdan 38 foizga oshdi. Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yoshga Prezident grantlari, shuningdek, mamlakatdagi xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalarga Prezident va davlat stipendiyalari ajratildi", deb yozgan rus bosma nashri muxbiri.

Davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida tahsil olayotgan xotin-qizlarning shartnoma to'lovlari Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi, deyiladi nashrda. Bundan tashqari, ilm yo'lini tanlagan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida doktoranturada o'qish kvotasi ikki barobarga oshirilgani ma'lum qilingan. Natijada so'nggi besh yilda O'zbekiston bo'ylab 187 nafar ayol falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi.

Shuningdek, ushbu materialda davlatimiz tomonidan tadbirkorlik sohasida yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator loyiha va dasturlar amalga oshirilayotgani ta'kidlangan.

**"Nezavisimaya gazeta"**da esa O'zbekistonning sayyohlik salohiyati haqidagi maqola mushtariylar e'tiboriga taqdim qilindi.

Jurnalist Viktoriya Panfilovaning yozishicha, bundan bir necha yil avval O'zbekiston ko'pchilik ruslar, ayniqsa, sobiq sovet davrini boshdan kechirmaganlar uchun o'ziga xos "terra incognita" edi.

"Ammo Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruviga kelganidan so'ng vaziyat tubdan o'zgara boshladi. Zamonaviy tipdagi pragmatik lider haqli ravishda yopiqlik boshqaruvi hozirgi dunyo haqiqatiga to'g'ri kelmaydi, deb hisoblaydi. Bundan kelib chiqib, turizm mamlakat taraqqiyotining muhim elementlaridan biri sifatida belgilandi", deb yozgan u.

Nashrda qayd etilishicha, turizm sohasi bir qator mamlakatlar, jumladan, jahon ahamiyatiga molik tarixiy diqqatga sazovor joylarga boy O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Muallif fikriga ko'ra, O'zbekistonda so'nggi besh yil ichida vaziyat keskin o'zgargan. Aeroportlar va yo'llar qurildi hamda rekonstruksiya qilindi, oilaviydan tortib xalqaro toifadagi hashamatli minglab yangi mehmonxonalar paydo bo'ldi.

"Natijada bugungi kunda O'zbekistonda turizm jadal rivojlanmoqda. O'tgan yili bu yerga birgina Rossiyadan qariyb 570 ming sayyoh kelganini aytish kifoya. Va bu bir yil oldingiga qaraganda uch baravar ko'p. MDHning boshqa davlatlaridan ham sayyohlar oqimi ortib bormoqda. Boshqa narsalar qatorida, mehmonlarni tinch, do'stona muhit va mahalliy aholining munosabati o'ziga jalb qiladi. Biroq mehmondo'stlik hamisha o'zbeklarning o'ziga xos xususiyati bo'lib kelgan", deya qayd etilgan nashrda.

Maqolada xorijlik ekspertlarning O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi haqidagi fikrlari ham o'rin olgan. Bundan tashqari, turizm bilan bog'liq xususiy sektorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilayotgani ta'kidlangan. "Xususan, turoperatorlar va aviatashuvchilarning Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga xorijiy davlatlardan charter reyslarni tashkil etish xarajatlarining bir qismi qoplanadi, — deb yozgan muxbir. — Shuningdek, balandligi kamida besh qavatli yangi mehmonxonalarni qurish va jihozlash uchun investorlar xarajatlarining bir qismini qoplash tizimi joriy etilmoqda. Olis va borish qiyin bo'lgan hududlardagi kemping egalari va safari-turizmi tashkilotchilariga soliq imtiyozlari beriladi".

Shuningdek, nashrda joriy yilning oktyabr oyida BMT Jahon sayyohlik tashkiloti (YUNVTO) Bosh Assambleyasining 5-yubiley sessiyasi O'zbekistonda ilk bor bo'lib o'tishi aytiladi. Ma'lum qilinganidek, Samarqandda dunyoning 160 ga yaqin davlatlaridan turizm sohasida faoliyat yurituvchi davlat organlari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, turizm biznesi vakillari ishtirok etadi. Bundan tashqari, O'zbekiston YUNVTO Ijroiya kengashining 2023 — 2027-yillarga mo'ljallangan Vakolatlar bo'yicha qo'mitasi a'zoligiga qabul qilindi.

"Bu respublika zimmasiga BMTning ushbu muhim bo'linmasi Ijroiya kengashi tomonidan qabul qilingan muhim qarorlar va hujjatlarning haqiqiyligi hamda prinsiplariga rioya etilishini nazorat qilish vakolati yuklanganligini anglatadi. O'z navbatida, bu mamlakatning xalqaro maydondagi mustahkam o'rni va O'zbekistonning dunyoviy nufuzi tobora yuksalib borayotganidan dalolat beradi", deb yozgan muallif.

Jurnalist, shuningdek, mutaxassislarning fikriga qo'shilgan holda, turizm O'zbekiston iqtisodiyotining drayveriga aylanishi mumkinligini alohida urg'ulagan.

"Sayyohlik sohasidagi taraqqiyot turdosh tarmoqlarning rivojlanishini taqozo etadi va yuqori multiplikativ effektga ega bo'lgan daromadlarni oshirishga xizmat qiladi. Turizm yangi ish o'rinlari yaratishda ham muhim omil hisoblanadi", deyiladi "Nezavisimaya gazeta"da bosilgan maqolada.

**"Dunyo" AA.**
Moskva

# ERISHILGAN KELISHUVLAR — MUSHTARAK MAQSADLAR IFODASI

*Har qanday mamlakatning barqaror rivojlanishi uning xalqaro miqyosdagi nufuzi, investitsiyaviy jozibadorligi bilan chambarchas bog'liq. Bu Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yaqinda Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning taklifiga binoan ushbu mamlakatga amalga oshirgan davlat tashrifida ham yaqqol namoyon bo'ldi.*

## Biz va jahon

Doha shahridagi "Amiri Devon" majmuasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qatar Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning muzokaralarida siyosiy muloqotni yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish masalalari ko'rib chiqildi. Chunonchi, ayni sohalardagi hamkorlik har ikki mamlakat uchun ham manfaatlidir.

Yodingizda bo'lsa, Qatar Amirining joriy yil iyun oyida Samarqandga amalga oshirgan tashrifi mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarda yangi bosqichni boshlab bergandi. Shundan keyin O'zbekiston bilan Qatar o'rtasidagi hamkorlikni yanada yuqori — strategik sheriklik darajasiga olib chiqishga qat'iy intilish boshlandi. Turli darajada muloqotlar faollashdi. O'zaro savdo hajmi oshmoqda, ikki mamlakat poytaxtlari o'rtasida aviaqatnovlar yo'lga qo'yildi.

Davlat rahbarlarining uchrashuvida tomonlar savdo ko'rsatkichlarini karrasiga oshirish, an'anaviy va "yashil" energetika, neft-kimyo, metallarni chuqur qayta ishlash, qurilish, turizm, moliya va boshqa sohalarda qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishga tayyorligini bildirdi.

Ishbilarmonlik aloqalarini faollashtirish uchun 2024-yilning yanvar oyida Dohada qo'shma Hukumatlararo komissiya hamda Ishbilarmonlar kengashining birinchi yig'ilishlarini va biznes forumini o'tkazish taklif qilindi.

Madaniyat, ta'lim va turizm sohalaridagi almashinuvni kengaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga kelishib olindi. O'zbekiston Qatarning ilmiy va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, xususan, biotexnologiyalar va sun'iy intellekt, "yashil" energetika borasida qo'shma tadqiqotlar o'tkazishdan manfaatdor. Chunki Qatarning resurslari kam bo'lgan sektorni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish tajribasi butun dunyoda keng o'rganilgan mamlakat ekanligini hisobga olsak, tabiiy resurslarga boy O'zbekiston bir tomonlama iqtisodiy rivojlanish siyosatidan voz kechib, iqtisodiyotning barcha jabhasida inklyuziv bozor munosabatlariga asoslangan islohotlar yo'lidan izchillik bilan bormoqda. Shu ma'noda, Qatar tajribasi va sarmoyalarini jalb qilgan holda mavjud infratuzilmani yanada rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish O'zbekistonni nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Osiyo qit'asida energetika, transport va logistika markazlaridan biriga aylantiradi.

Dohada O'zbekiston madaniyati va turizm haftaligini o'tkazishga ahdlashib olingani mamlakatimizning boy madaniy merosini targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, qatarliklar o'zbek xalqining shonli tarixi va madaniyatiga katta hurmat bilan qaraydi. Jumladan, Qatar islom san'ati muzeyida temuriylar va boburiylar merosiga bag'ishlangan alohida bo'limlar, Milliy kutubxonasida buyuk mutafakkirlarimiz Imom Buxoriy, Muhammad Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va Ahmad Farg'oniy asarlari saqlanayotgani buning yorqin dalilidir.

O'zbekiston Qatar kompaniyalarini turizm sohasida faol hamkorlikka taklif qilmoqda. O'zbekistondagi tarixiy va islomiy yodgorliklarni ziyorat etish maqsadida Qatardan keladigan sayyohlarni qabul qilish uchun mamlakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Xususan, Qatar fuqarolari uchun O'zbekistonga kirish bo'yicha 10 kunlik vizasiz tartib joriy etilgan.

Mamlakatimizning iqtisodiyot va savdoni diversifikatsiya qilish, jahon iqtisodiy markazlari bilan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan siyosatida transport-tranzit yo'llari muhim o'rin tutadi. Ilgari Markaziy Osiyo mintaqasi koridor sifatida ko'rilgan bo'lsa, bugungi kunda u platformaga aylanish uchun qulay sharoitga ega. Shu maqsadda mintaqa uchun kelajakda muvaffaqiyatli rivojlanish garovi nafaqat tranzit yo'lagi mavqeiga ega bo'lish, balki mintaqa mamlakatlari o'rtasida integratsiya va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish bilan izohlanadi.

2022-yil yakuni bo'yicha ikki mamlakat o'rtasidagi tovar aylanmasi 4,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Lekin bu ikkita muhim mintaqada katta mavqega ega bo'lgan O'zbekiston va Qatarning salohiyatiga mos emas. Ya'ni mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro savdo-iqtisodiy sohalarda hali ishga solinmagan imkoniyatlar mavjud. Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining Qatarga tashrifi ikki mamlakatning siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport va logistika sohalaridagi o'zaro munosabatlarini yanada rivojlantirish istiqbollarini ko'rib chiqish uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qatarga davlat tashrifi doirasida "EKSPO Doha — 2023" butunjahon ko'rgazmasining ochilish marosimida ishtirok etdi. "EKSPO Doha — 2023" mintaqada o'tkazilayotgan ilk global "yashil" ko'rgazmadir. Tadbir "Yashil sahro, yanada yaxshi atrof-muhit" shiori ostida o'tkazilmoqda va kelgusi yil mart oyiga qadar davom etadi. Forum ishtirokchilari atrof-muhitni muhofaza qilish, ekotizimni rivojlantirish, "aqlli" qishloq xo'jaligini joriy qilish, yangi turdagi ekinlarni yetishtirish, innovatsion bog'lar yaratish va boshqa yo'nalishlardagi ilg'or texnologiyalar yutuqlari bilan tanishishdi. Ko'rgazma doirasida tashkil etilgan O'zbekiston milliy pavilyonida intensiv dehqonchilik va chorvachilik, ekologik menejment sohalaridagi eng yangi texnologiyalar, mamlakatimiz bog'dorchilik va oziq-ovqat tarmoqlari taqdimotlari namoyish etildi.

Ko'rgazma xalqaro hamjamiyatni qurg'oqchilik va cho'llanish oqibatlarini yumshatish bo'yicha samarali yechimlarni o'rganish va ishlab chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Negaki, bugungi kunga kelib global iqlim o'zgarishlari,



ekologik barqarorlikni ta'minlash millatidan qat'i nazar, har bir insonga taalluqli dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Shu bois davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda tabiiy hududlarni saqlab qolish, ularni qayta tiklash, ekologik muhitni yaxshilash, o'simlik dunyosini, yashil maydonlarni ko'paytirish va rivojlantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar muntazam amalga oshirib kelinmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha alohida bandda qator vazifalar o'z aksini topdi. Orolbo'yi mintaqasidagi o'rmonzorlarni 1,9 mln. gektarga yetkazish, Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 200 ming gektar yashil maydonlarni barpo etish maqsad-vazifalari ifodalangan.

Shu ma'noda aytganda, O'zbekiston va Qatarning iqlim o'zgarishi va tabiatni asrash borasidagi intilishlari mushtarak jihatlarga ega.

Prezidentimiz olib borayotgan tashqi siyosatning pirovard maqsadi — aholimiz farovonligini oshirish va inson qadrini ulug'lashdan iborat. Buning isbotini ushbu mamlakatning yetakchi ishbilarmon doiralari vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar natijasi o'laroq O'zbekistonning jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotida Qatar sarmoyalari ulushini bir necha barobar oshirish bo'yicha muhim kelishuvlarga erishilgani misolida ko'rish mumkin.

Qatar uzoq muddatli mablag'larni O'zbekistonning strategik tarmoqlariga investitsiya qilishga tayyor. Xususan, Qatarning "Nebras Power", "Power International", "Al Mirqab Capital" singari yetakchi kompaniyalari, Qatar investitsiya agentligi bilan energetika sohasida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, zamonaviy aerovokzallar qurish, agrosanoat klasterlari, ishbilarmonlik, mehmonxona infratuzilmalari va sog'liqni saqlash obyektlari loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Shuningdek, "yashil" energetika sohasida ham uzoq muddatli hamkorlik dasturi qabul qilindi. Masalan, Qatarning yetakchi energetika korporatsiyasi bo'lgan va o'ndan ziyod mamlakatlarda yirik loyihalarni amalga oshirgan "Nebras Power" Sirdaryo viloyatida bug'-gaz texnologiyalari asosida quvvati 1,6 GVt bo'lgan zamonaviy elektr stansiyasi qurilishi loyihasini amalga oshirishni boshlagan. Surxondaryo viloyatida issiqlik elektr stansiyasini barpo etish loyihasi doirasida tayyorgarlik ishlari yakunlanmoqda. Toshkent viloyatida 600 MVt quvvatli energiya saqlash tizimlarini yaratish hamda Qoraqalpog'istonda 1 GVt quvvatli shamol elektr stansiyasini ishga tushirish bo'yicha qo'shma rejalar muhokama qilindi.

Umuman, Qatar mamlakatimiz uchun tashqi savdo borasida hali kashf etilmagan yangi bozorlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyoti yuksak rivojlangan bu davlatning yalpi ichki mahsuloti 270 mlrd. dollarga teng. Bu ko'rsatkich aholi jon boshiga 144 ming dollardan to'g'ri keladi va dunyoda birinchi o'rinda turadi.

Muxtasar aytganda, davlatimiz rahbarining tashrifi chog'ida bo'lib o'tgan samarali muloqotlar va qabul qilingan bir qator muhim qo'shma hujjatlar hamkorlikni yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirishning amaldagi yaqqol ifodasi sifatida namoyon bo'ldi. Ishonamizki, ochiq, do'stona va pragmatik siyosat hamda mushtarak maqsad Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqdagi ikki muhim davlat — O'zbekiston va Qatar o'rtasidagi hamkorlik o'zaro ishonch va tenglik, manfaatdorlik ruhida izchil rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

**Sobitxon TURG'UNOV,**
**Namangan davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor.**

# ISHLAB CHIQARISH VA TABIAT MUHOFAZASI UYG'UNLIGI

*Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilish, xususan, sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish orqali ekologik holatni yaxshilash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bu borada o'tkazilgan tahlil natijalari sanoat korxonalarida, jumladan, kimyo sanoati obyektlarida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarida kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishning samarali usullarini joriy etish zaruratini ko'rsatmoqda.*

## Mushohada

Kimyo sanoati korxonalari atrof-muhitning zararli moddalar bilan ifloslanish xavfi yuqori bo'lgan nuqtalarga kiradi. Ushbu obyektlar faoliyati doirasida xavfli moddalar atrof-muhitga tarqalishi tabiiy holdir. Atmosferaga chiqayotgan tashlamalarning hajmi, masalan, tog'-kon sanoati chiqindilari bilan taqqoslaganda, nisbatan kam bo'lishiga qaramay, ular tabiatga katta zarar yetkazishi mumkin.

Kimyo sanoatining ekologiyaga salbiy ta'siri katta bo'lishi barobarida ushbu sanoatda inson hayotida muhim bo'lgan zarur mahsulotlar ishlab chiqariladi va iqtisodiyotga ulkan hissa qo'shadi. 2017 — 2022-yillarda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 21,1 foizdan 26,7 foizga oshgani, bunda kimyo sanoatining hissasi yuqori ekani sohaning muhimligidan dalolat beradi.

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati mamlakatdagi mavjud kimyo korxonalarini birlashtiruvchi yagona korporativ tizim hisoblanib, bugungi kunda jamiyat tarkibiga 24 ta tashkilot kiradi. Jamiyat kimyo sanoatini zamonaviylashtirish, rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo'naltirilgan yagona texnika siyosatini yuritish bilan bir qatorda, ishlab chiqarishda ekologik tozalikni ta'minlash, chiqindisiz texnologiyalarni va atrof-muhitni saqlash dasturlarini joriy etishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi maqsadlarida kimyo va gaz-kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish orqali kimyo sanoatida 2 mlrd. AQSH dollariga teng mahsulot ishlab chiqarish vazifalari belgilangan. Ushbu chora-tadbirlardan kelib chiqqan holda bugungi kunda mamlakatda kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturi tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham yirik sanoat korxonalari tashlamalarini keskin qisqartirish maqsadlari ilgari surilgan.

Mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanoat korxonalarining atrof-muhitga bosimini kamaytirish maqsadlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi ro'yobga chiqarilmoqda.

Shu o'rinda "O'zkimyosanoat" AJ bugungi kunda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamkorligida O'zbekistonda kimyo sanoati bo'yicha past uglerodli strategiya va "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda yaqin hamkorlik qilayotganini qayd etish joiz. "Yo'l xaritasi" Parij kelishuvi shartlariga muvofiq tayyorlanadi, uning asosiy maqsadi 2050-yilga borib atmosferaga tashlamalarni nolga tenglashtirishdir.

Ayni chog'da Hukumat qaroriga asosan, tarmoq korxonalarida ekologik vaziyatni yaxshilash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tarmoqni chiqindisiz sohaga aylantirish, shuningdek, aylanma iqtisodiyot amaliyotini joriy qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi" amalga oshirilmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ tizimida birgina joriy yilda atrof-muhitni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi yo'nalishida bajarilgan chora-tadbirlar natijasida atmosferaga tashlamalar 18,9 ming tonna kamayishiga erishilgan. Shuningdek, 718,1 gektar yer texnik rekultivatsiya qilingan, 11,8 ming tonna chiqindi utilizatsiyaga topshirilgan, obyektlar atrofida 500 mingdan ziyod daraxt va butalar ekilgan.

Jamiyat tizimidagi korxonalarda "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun talablariga asosan, davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazorat tizimi o'rnatilgan bo'lib, bu bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan.

Yana bir muhim jihat. "O'zkimyosanoat" AJ tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tarmoq korxonalarida keng ko'lamda joriy etish va yoqilg'i-energetika resurslarining iste'molini kamaytirish maqsadida joriy yil yakuniga qadar bino-inshootlar tomlariga 10,0 megavattlik quyosh panellarini o'rnatish rejalashtirilgan. Bu esa, o'z navbatida, 9,6 ming tonna ko'mir yoki 6,9 mln. kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish imkonini yaratadi, 11,4 ming tonna is gazi atmosferaga tashlanishining oldi olinadi.

Ta'kidlash kerak, kimyo sanoati korxonalari bugungi globallashuv va iqlim o'zgarishlari sharoitida atrof-muhit muhofazasi borasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Xususan, kimyo sanoati obyektlarida zararli moddalar chiqarilishini kamaytiradigan zamonaviy texnologiyalar hamda ishlab chiqarish usullaridan va bunda chiqindisiz (kam chiqitli) texnologiyalar, energiya tejovchi jarayonlar va zamonaviy emissiya nazorati tizimlaridan kengroq va samarali foydalanishi lozim bo'ladi.

Shuningdek, aylanma (sirkulyar) iqtisodiyot amaliyotini joriy qilish, korxonalarning mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish sexlaridagi zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash orqali suv resurslaridan samarali foydalanish, ularning ifloslanishini kamaytirish, yer resurslarini muhofaza qilish hamda ishlab chiqarish faoliyatida "nol" chiqindi tamoyilini joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning innovatsion yechimlariga o'tish maqsadga muvofiqdir.

Atmosfera havosiga ta'sir xavfi yuqori bo'lgan kimyo sanoati korxonalarining atmosferani ifloslantiruvchi ustuvor manbalarida avtomatik stansiyalar, ularga tutash hududlarda statsionar kuzatuv punktlarini o'rnatish va Yagona geoaxborot ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilish atrof-muhit muhofazasi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ekologik talablarning buzilish holatlarini aniqlash maqsadida kimyo korxonalari faoliyatining tizimli monitoringi va nazoratining olib borilishi, emissiyalar sifati, chiqindilarni utilizatsiya qilish, uskunalar xavfsizligi va boshqa muhim jihatlar davlat va jamoatchilik nazoratiga olinishi lozim.

Xulosa o'rnida aytsak, bugungi global rivojlanish va iqlim o'zgarishlari sharoitida iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarida "yashil" texnologiyalarni qo'llash orqali tabiatga yetkazilayotgan zararni keskin kamaytirish ishlab chiqarish va tabiat uyg'unligiga erishish imkonini beradi. Bu esa pirovard natijada yurtimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

**Xayrullo G'AFFOROV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari.**

# IMKONIYATI CHEKLANGANLAR MANFAATLARI — DOIMIY E'TIBORDA

← 1

Fikrimizni raqamlar bilan dalillaydigan bo'lsak, 2022-yilda mingga yaqin ish beruvchilarga 1 ming 805 nafar nogironligi bo'lgan shaxsni ishga qabul qilgani uchun subsidiya yo'naltirilgan. Joriy yilning 1-sentabr holatiga esa 659 ta ish beruvchiga 1 ming 412 nafar nogironligi bor shaxsni ishga olgani uchun 6 oygacha BHMning 1,5 baravari miqdorida subsidiya berildi.

Ushbu toifalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida nogironlik pensiya va nafaqalarining eng kam miqdori 747 ming so'mga yetkazildi. Bu nafaqa miqdori 2017-yil boshidagiga nisbatan 5,1 baravarga o'sganini anglatadi. Chunki qayd etilgan davrda eng kam nogironlik pensiya miqdori 146,5 ming so'm edi.

Islohotlarning bardavomligi va izchilligi o'laroq 2022-yilning 1-aprelidan boshlab o'zgalar parvarishiga muhtoj, nogironligi bor 18 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga ham har oyda yangi turdagi parvarishlash nafaqasi joriy etildi. Bugungi kunda ushbu ijtimoiy himoya miqdori 568 ming so'mni tashkil qilmoqda. Uning joriy etilishi natijasida 64 mingga yaqin oilalarga ana shunday nafaqa to'lab beriladi.

2023-yil 1-yanvardan boshlab I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning pensiya tayinlanganidan keyin kamida 1 yillik ish staji mavjud bo'lgan taqdirda ish staji va ish haqlarini inobatga olgan holda har 2 yilda bir marotaba qayta hisoblab chiqiladi. Natijada joriy yilda 75 mingdan ziyod nogironligi bor fuqarolarning pensiyasi qayta hisob-kitob qilinib, o'rtacha 300 ming so'mgacha oshadi.

Shuningdek, kelgusida nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyin mehnat faoliyatini olib borgan 43 mingdan ziyod bunday shaxslarning pensiyalari har 2 yilda (ish staji va oylik ish haqidan kelib chiqib) bir marotaba qayta hisoblab boriladi. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun joriy yil boshidan e'tiboran Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan yiliga qo'shimcha ravishda o'rtacha 275 mlrd. so'm mablag' ajratildi.

Xullas, mamlakatimizda inson qadr-qimmati, ayniqsa, ehtiyojmand va nogironligi bo'lgan shaxslar masalalari doimiy diqqat-e'tiborda. Qolaversa, O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida ijtimoiy adolat tamoyili muhrlab qo'yildi. Demak, endilikda ijtimoiy adolatni ta'minlash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Bu esa, o'z navbatida, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ishlarni yanada jadallashtirish imkoniyatini beradi.

**Qizilgul QOSIMOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# XALQIMIZ ERTAGA EMAS, BUGUN HAM YAXSHI YASHASHGA HAQLI

*Keyingi yillarda mamlakatimiz janubi — Surxondaryo viloyatida ham bunyodkorlik ishlarining ko‘lami kengaymoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida inson qadrini ulug‘lash, aholi turmush farovonligini yanada yaxshilashdek ezgu maqsadlar mujassam.*

**Nuqtai nazar**

Ta’kidlash joizki, yurtimizda tardbirkorlarga yaratilayotgan sharoitlar va berilayotgan imkoniyatlar tufayli Surxondaryoda ham investitsiya muhiti keskin o‘zgarmoqda.

Hozirgi kunda izchillik bilan ro‘yobga chiqarilayotgan 942 mln. dollarlik loyihalarga qo‘shimcha ravishda 420 mln. dollarlik 100 ta loyiha hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilyapti. Natijada o‘ttiz mingta yangi ish o‘rni yaratilgan. Shuningdek, Oltinsoy va Denov tumanlarida qiymati 150 mln. dollar bo‘lgan beshta loyiha doirasida ko‘mir qazib olish tashkil etilgani ichki ehtiyojdan ortganini eksportga chiqarishga imkon yaratdi.

Investitsiyalar haqida so‘z yuritayotgan ekanmiz, bunda Termiz tumanida bazalt xom-ashyosidan mineral vata hamda fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilayotganini aytib o‘tmasak bo‘lmas. Shuningdek, Sherobod tumanida kaliy zaxiralaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida salohiyatli xorijiy sarmoyadorlar tomonidan 700 mln. dollar investitsiyalar jalb etilayotgani, buning hisobiga yiliga 1 mln. tonna kaliy ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan uchta yirik korxona barpo etilishi hududning iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, aholi turmush farovonligini oshirish, shahar va qishloqlar infratuzilmasini yanada yaxshilashga xizmat qilayotir.

Bu hali hammasi emas. Yaqinda viloyat delegatsiyasi Xitoy Xalq Respublikasida bo‘lib qaytdi. G‘oyat samarali bo‘lgan ana shu tashrif davomida qiymati 727 mln. dollarlik kelishuvlarga erishildi. Xuddi shuningdek, Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi tomonidan amalga oshirilayotgan 457 MVt quvvatga ega bo‘lgan quyosh fotoelektrstansiyasining birinchi bosqichi joriy yil yakuniga qadar foydalanishga topshirilib, stansiyada 100 megavattlik quvvat yaratilishi ko‘zda tutilayotir. Bu ham, albatta, odamlarning turmushini yengillashtirishdan tashqari, ularning bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.

Prezidentimizning Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida berilgan topshiriqlar hayotga izchillik bilan tatbiq etilmoqda. Tabiiyki, bu ham o‘zining ijobiy samaralarini beryapti.

Xususan, infratuzilmani yaxshilash maqsadida viloyatda joriy yilning o‘zida 1 500 kilometrdan ortiq ichki yo‘llar ta’mirlandi. Kuz-qish mavsumi oldidan viloyat bo‘yicha 376 ta transformator o‘rnatish va 817 kilometr yangi tarmoqlar tortish ishlari yakuniga yetkazilmoqda. Ayni paytda Termiz shahri, Sariosiyo, Denov, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on va Sho‘rchi tumanlaridagi yuqori kuchlanishli nimstansiyalarni rekonstruksiya qilish ishlari tugallanyapti.

Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash bugungi kunning yana bir dolzarb masalasidir. Bu borada ham viloyatda xayrli ishlar qilinmoqda, deyishga to‘la asos bor. Chunki 700 kilometrdan ortiq ichimlik suvi tarmog‘i va 95 ta suv inshootini qurish orqali 87 ming nafar aholining ichimlik suvi ta’minoti yaxshilanadi hamda 77 mingta xonadoniga ilk bor markazlashgan holda ichimlik suvi yetkazib beriladi.

Sir emaski, hozirda dunyoda iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq murakkab vaziyat yuzaga kelgan bir sharoitda yashayapmiz. Tabiiyki, bunday sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash muhim masala hisoblanadi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, shuningdek, bu turdagi mahsulotlar eksportini yanada kuchaytirish zarur.

Shu ma’noda, keyingi bir-ikki yilda Muzrabot hamda Sherobod tumanlaridagi uzoq yillardan buyon foydalanilmay yotgan 35 ming gektar yer maydoni qayta o‘zlashtirildi. Bu yer maydonlarida paxta, g‘alla va sholi yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Agar bir paytlar Surxondaryoda sholichilik yaxshi ravnaq topganini, keyinchalik ushbu sohaga e’tibor deyarli yo‘qolib ketganligini inobatga olsak, bu agrar sohani rivojlantirishdagi juda yaxshi va xayrli ishlardan biri bo‘lganini anglash qiyin emas.

Xuddi shunday ildizi ezgulikka borib taqaluvchi islohotlar samarasi o‘laroq, Jarqo‘rg‘on va Qumqo‘rg‘on tumanlarida ham 20 ming gektar yer maydonini o‘zlashtirish hisobiga kartoshka hamda meva-sabzavot ekinlari yetishtirish ko‘zda tutilgan. Albatta, bunday yirik ishlarni amalga oshirishning o‘zi bo‘lmaydi. Shuning uchun bu ishga tadbirkorlar ham jalb etilmoqda. Ular tomonidan 100 mln. dollardan ko‘proq to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya yo‘naltiriladi va minglab yangi ish o‘rinlari ochiladi.

Yana bir muhim statistika, bu aholi ehtiyojlari orasida zarur bo‘lgan uy-joy ta’minoti masalasi bilan bog‘liq. Ayni talabni qondirish uchun shu paytga qadar amalga oshirilgan qurilishlarga qo‘shimcha ravishda birgina joriy yilning o‘zida 10 mingdan ortiq xonadonli ko‘p qavatli uy-joylar qurilib, foydalanishga topshirilgani e’tiborga molik.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz mutlaqo yangi davrga dadil qadam qo‘ymoqda. Bu jarayonda barchamiz, xususan, mahalliy Kengash deputatlari ham yanada faol bo‘lib, vazifaga mas’uliyat bilan yondashgan holda mehnat qilishimiz lozim.

**Dilfuza JO‘RAYEVA,**
**Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi deputati.**

**Izlanish**

## TOLANI QAYTA ISHLASHDAN TAYYOR MAHSULOTGACHA

*Qashqadaryo viloyatining Mirishkor tumanida faoliyat yuritayotgan “Samo” tekstil korxonasi joriy yil boshida “Mirishkor tekstil group cluster” mas’uliyati cheklangan jamiyati muassisligida ishga tushirilgan edi.*

Jamiyatning 2,5 million dollar qiymatidagi o‘z mablag‘lari hisobiga barpo etilgan korxonada tayyor kiyim-kechaklar ishlab chiqarilmoqda. Bu faoliyat tufayli hududdagi 400 nafarga yaqin aholi doimiy ish bilan band etilgan.

— “Samo” brendi ostida mamlakatimizda bir qator tekstil korxonalari faoliyat yuritadi, — deydi korxonaning ishlab chiqarish bo‘limi bosh ustasi Gavharoy Nizomova. — “Mirishkor tekstil group cluster” mas’uliyati cheklangan jamiyati ham ulardan biri hisoblanadi. Ushbu korxonalarda tolani dastlabki qayta ishlashdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan barcha jarayon qamrab olingan. Bu ishlarni tizimli tashkil etishda qator qulayliklar yaratadi. Andijonlik bo‘lganim bois avval viloyatimizdagi korxonalarimizda ishlab, tajriba oshirgan edim. Shuning uchun ham Mirishkorda ishlarni uyushtirish, chevar xotin-qizlarga zamonaviy tikuv mashinalarida ishlashni o‘rgatishda deyarli qiyinchilikka duch kelmadik. Ular bu ishni juda tez o‘zlashtirishdi.

Ayni paytda korxonada kuniga 7 ming donagacha kiyim-kechaklar ishlab chiqarilayotir. Tayyor mahsulotlar Rossiya va Qozog‘istonga eksport qilinyapti.

**Jahongir BOYMURODOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

**Senator va hayot**

## HUDUDLARDAGI ISLOHOTLAR JARAYONI O‘RGANILMOQDA

*Avval xabar berilganidek, ayni kunlarda senatorlar hududlarda bo‘lib, aholi vakillari bilan muloqotlar o‘tkazmoqda.*

*Senatning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasida a’zosi A. To‘ychiyev hamda Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi a’zosi M. Salimova Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan dasturlar va “yo‘l xaritalari”ning ijrosini o‘rgandi.*

Xususan, Bag‘dod tumanidagi “Guzar”, “Bog‘ishamol” va Beshariq tumanidagi “Yangi” mahalla fuqarolar yig‘inlarida joylashgan umumta’lim maktablari binolarini kapital rekonstruksiya qilish ishlari ko‘zdan kechirildi.

O‘rganish davomida senatorlar tomonidan ushbu obyektlardagi qurilish va ta’mirlash ishlari sifatli tarzda, dasturlarda belgilangan muddatlarda topshirilishi zarurligi, mahalliy Kengashlar deputatlari mazkur jarayonda faol bo‘lishi kerakligi alohida ta’kidlandi.

* * *

Senatning Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari qo‘mitasi a’zosi M. Parpiyev Namangan viloyatining tuman va shaharlarida o‘rganishlar olib bormoqda.

Jumladan, senator Chortoq tumani elektr tarmoqlari korxonasida bo‘lib, qishga tayyorgarlik bo‘yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi va soha mutasaddilari bilan muloqot o‘tkazdi. Unda mavsumiy ishlarni yuksak mas’uliyat bilan tashkil etish, davlatimiz rahbari tomonidan energetika sohasida olib borilayotgan tizimli o‘zgarishlarga ongli munosabatda bo‘lish, aholi orasida targ‘ibot va tushuntirish ishlarini kengaytirish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Senator tumandagi 53-davlat ixtisoslashtirilgan maktabida o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan uchrashdi. Ularga Senatning 45-yalpi majlisida ma’qullangan qonunlar, xususan, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida tushuntirish berildi.

Suhbat davomida yoshlarning sifatli ta’lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilayotgani, bugun olinayotgan puxta bilim ertaga mustahkam poydevor bo‘lishi, bilimli mutaxassislarga bo‘lgan talab yuqori ekanligi alohida ta’kidlab o‘tildi.

Senatorning hududlardagi o‘rganishlari davom etmoqda.

**“Xalq so‘zi”.**

**Osiyo o‘yinlari**

## BADIIY GIMNASTIKACHILARIMIZ QIT’ADA TENGSIZ

*Xitoyning Xanchjou shahrida o‘tkazilayotgan Osiyo o‘yinlarining o‘n uchinchi kun bellashuvlari o‘z nihoyasiga yetdi. Kecha yurtdoshlarimiz 1 ta oltin, 2 ta kumush va 1 ta bronza medallarni qo‘lga kiritishdi.*



Sportning nafis va eng jozibador turi bo‘lmish badiiy gimnastika bo‘yicha Taxmina Ikromova, Vilana Savadyan va Yevalina Atalyansdan iborat O‘zbekiston terma jamoasi halqa, to‘p, bulava hamda tasmadagi mashqlar orqali umumiy 324.800 ochko jamg‘arib, raqiblarini ortda qoldirdi va delegatsiyamiz hisobiga navbatdagi oltin medalni taqdim qildi.

Anvar Klevleyev turnirning slalomda eshkak eshish bahslarida 98.63 natijani qayd etib, shohsupaning 2-pog‘onasidan joy oldi. Aslida Anvar mazkur ko‘rsatkich bilan oltin medalga sazovor bo‘lishi kerak edi, biroq videotakrorlarni ko‘rib chiqqan musobaqa hakamlari xitoylik sportchiga qo‘llanilgan 50 soniyalik jarimani olib tashladi va unga oltin medal tortiq etdi.

Og‘ir atletikachilarimiz ham zafarli odimni davom ettirishdi. Jumladan, -109 kg. vazn toifasida qatnashgan Akbar Jo‘rayev dast va siltab ko‘tarish yakunlariga ko‘ra 417 kg. toshni bo‘ysundirib, kumush medalni qo‘lga kiritdi. Ushbu vaznning yana bir vakili, taniqli sportchimiz Ruslan Nurudinov umumiy 391 kg. natija bilan bronza medal bilan kifoyalandi.

Navbatdagi kundan so‘ng terma jamoamiz jamg‘argan medallar soni 64 taga yetdi. Ularning 20 tasi oltin, 18 tasi kumush va 26 tasi bronza medallaridir. Umumjamoa hisobida beshinchi o‘rinni egallab turibmiz.

**“Xalq so‘zi”.**
Hasan PAYDOYEV olgan surat.

**Agrar sektor**

## SIRDARYO QOVUNLARI — YEVROPA BOZORIDA

*So‘nggi yillarda mamlakatimiz poliz mahsulotlarining eksport hajmi ortmoqda. Xususan, Sirdaryoda ham bu borada o‘sish kuzatilyapti. Masalan, joriy yilning to‘qqiz oyida 10 883 tonna qovun xorij bozorlariga yetkazib berildi.*

E’tiborlisi, mashhur Mirzacho‘l qovunlarining eksport jug‘rofiyasi ancha kengaydi. Ya’ni bugun ushbu ro‘yxatda Germaniya, Gretsiya, Latviya, Litva, Rossiya, Moldova, Polsha, Qozog‘iston va boshqa davlatlar bor.

Eksport ko‘lamini kengaytirishda navlarni tanlash, uzoq yo‘lga chidamli hamda ekologik toza mahsulot yetishtirish kabi omillarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

— Qovunni eksport qilishdan oldin uning fitosanitar holati inspektorlar tomonidan ko‘zdan kechiriladi, — deydi Sirdaryo viloyati o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasining chegara maskani inspektori Mustaqim Ismoilov. — Shu bilan birga, urug‘ yerga tushgandan boshlab “Karantin xizmati — dehqonga ko‘makchi” tamoyili doirasida dehqonlarga yaqindan ko‘mak berib kelmoqdamiz. Buning natijasida ular fitosanitar va albatta, eksport talablariga to‘liq javob beradigan poliz mahsulotlari yetishtirish imkoniyatiga ega bo‘lyapti.

Shuningdek, viloyatning Xovos va boshqa tumanlaridagi bir necha mahallalarda mahalliy bozor hamda eksport uchun qovun qoqi tayyorlash keng yo‘lga qo‘yilgan. Qolaversa, ushbu poliz mahsulotining urug‘i ham qayta ishlash sanoati uchun xomashyo sifatida xorijiy xaridorlar tomonidan sotib olinmoqda.

**Ahmadali SHERNAZAROV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI

## MILLIY TA’LIMNI JAHON ILM-FANI BILAN INTEGRATSIYA QILISH IMKONINI BERADI



*Mamlakatimizning istiqboli, jahon hamjamiyatida qanday mavqega ega bo‘lishi, tinch-osoyishta hayot va iqtisodiy farovonlik ta’minlanishi, bularning barchasi, birinchi navbatda, bir olam orzular bilan katta hayotga qadam tashlayotgan yangi avlodning ta’lim-tarbiyasiga bog‘liq. Shu bois bilimli, keng dunyoqarashga ega va barcha sohada zamonaviy axborot texnologiyalari hamda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalari sirasiga kiradi.*

**Tahlil**

Zero, uchinchi Renessans poydevorini qurishda ushbu mo‘jizaviy kashfiyot — sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish ulkan samara berishi, shubhasiz.

Shu ma’noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev navqiron avlodga alohida e’tibor qaratib, ularga keng imkoniyatlar yaratib berilishi uchun ko‘plab ezgu tashabbuslarni ilgari surayotgani bejiz emas.

### Ta’lim taraqqiyotida yangi davr

Davlatimiz rahbari zimmamizga katta vazifalar qo‘yar ekan, uning amaliy yechimini ham ko‘rsatib bermoqda. Aynan yoshlar ta’lim-tarbiyasi sohasida ham birgalikda harakat qilish mushtarak maqsadlarimizni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Zotan, dunyoda kechayotgan globallashuv davrida ma’rifiy uyg‘onish hodisasi bugun har qachongidan muhim va dolzarbdir.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish davri taqdir taqozosi bilan dunyoda to‘rtinchi sanoat inqilobi rivojlanishi davriga to‘g‘ri kelyapti. Aynan shu pallada inson kapitali birinchi o‘ringa chiqdi. Mazkur jarayonda muhim o‘rin egallaydigan yo‘nalish, bu — sun’iy intellekt texnologiyalarining keng tatbiq etilishi hisoblanadi.

Yana bir muhim jihat, avvalgi sanoat inqiloblarining barchasi tadrijiy reja asosida bosqichma-bosqich rivojlangan. To‘rtinchi sanoat inqilobi esa juda keskin tarzda taraqqiy etmoqda. Bunday sharoitda dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlarga hamohang ravnaq talab qilinadi.

Prezidentimizning 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida bu boradagi muhim vazifalar belgilandi. Shu tariqa sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga kerakli shart-sharoitlar yaratish va buning uchun ikki yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Ayni yo‘nalishda tayanch oliy ta’lim muassasalari belgilangan bo‘lib, ular safidagi to‘rtta yetakchi oliy ta’lim dargohi — O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Samarqand davlat universiteti hamda Toshkent davlat texnika universitetida 2021/2022-o‘quv yilidan boshlab sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha yangi ta’lim yo‘nalishlari o‘z faoliyatini boshladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu qarori bilan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish (hozirgi Raqamli texnologiyalar) vazirligi huzurida Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Demak, mazkur huquqiy hujjatda belgilangan vazifalar doirasida mamlakatimizda sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun dastlabki qadamlar tashlandi. Shu asosda oliy ta’lim muassasalarida xalqaro miqyosda raqobatdosh mutaxassislar tayyorlashga kirishildi.

Ilm-fan va amaliyotni o‘zaro uyg‘unlashtirish maqsadida esa Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida yuqori malakali mutaxassislarning ilmiy-amaliy faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib berildi. Bu yerda mamlakatimiz oliy ta’lim dargohlari professor-o‘qituvchilari, amaliyotchilar tajriba loyihalari doirasida o‘z ko‘nikmalarini amalda qo‘llab ko‘radi. Bu ilmiy va innovatsion g‘oyalarni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish imkonini beradi hamda yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qiladi.

### Barcha sohada hal qiluvchi ahamiyatga ega

Hozirgi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari, asosan, G‘arb mamlakatlaridan kirib kelyapti. Hech kimga sir emas, sun’iy intellekt texnologiyalari eng faol rivojlangan mamlakat, bu — AQSH hisoblanadi. Okeanorti mamlakatida mazkur sohada fundamental tadqiqotlardan boshlab, ushbu ixtirolarni amalda qo‘llashgacha barchasi yo‘lga qo‘yilgan. Demak, ingliz tilida boshqa tillarga nisbatan ushbu yo‘nalishda bilim, tajriba va ma’lumotlar ko‘p. Shu sababli, yangi texnologiyalarni o‘rganayotganda ingliz tili ko‘nikmalari ham zarur.

Shuni unutmasligimiz kerakki, sun’iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi natijasida jahon axborot makonida ona tilimizda muloqot qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Shuningdek, ko‘plab mobil qurilmalar, u “Apple” kompaniyasining “Siri” yordamchisi bo‘ladimi, “Android” platformasidagi “Ok Google” yechimi bo‘lsin, “Alisa” yoki “Aleksa” bo‘ladimi, bularning barchasi sun’iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilgan.

Ayni chog‘da ushbu texnologiyalarni o‘zbek tilida qo‘llash masalasini ijobiy hal etish dolzarb vazifa. Misol uchun, imkoniyati cheklangan yoshlarimizning ayrimlari eshitmaydi, gapira olmaydi, demak, o‘qiy olish imkoniyati ham cheklangan. Bu toifadagi yoshlarimizning ta’lim jarayonini qanday tashkillashtiramiz? Bunda ovozli yordamchilar orqali o‘zbek tilida so‘zlashuvchi sun’iy intellekt yaratib, shu yechimlar asosida inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish mumkin.

Umuman olganda, yoshlarimiz hozirda gadjetlar orqali ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek tilida muloqot qiladigan ovozli yordamchilarni ishlab chiqsak va farzandlarimiz telefon orqali o‘zbek tilida muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lsa, maktabgacha ta’limning o‘zidayoq zo‘r muvaffaqiyat qozongan bo‘lamiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, axborot texnologiyalari sohasi rivojlanmasa, qolgan hech bir soha rivojlanmaydi, chunki bu — zamon talabi, bu barcha sohada, sanoatda, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda, ijtimoiy hayotda, davlat boshqaruvida ham muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Buning uchun bugun barcha sharoit va imkoniyatlarimiz mavjud. Ayni yo‘nalishda oliy ta’lim muassasalari, talaba yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilyapti. Demak, zamonaviy axborot texnologiyalari shunday tezlikda rivojlanib borsa, yaqin istiqbolda sun’iy intellekt sohasida olamshumul kashfiyotlar yaratiladi.

### Buyuk meros vorisimiz

Biz fanda dunyo tamadduni rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan, juda katta ixtirolar, kashfiyotlar yaratgan ajdodlarning avlodimiz.

Ammo endilikda faqat faxrlanish bilan ish bitmaydi. Kuchli bilim sohibiga aylanish orqali ularga munosib izdosh bo‘lishimiz lozim. Yangi O‘zbekistonni qurish, uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo‘lida davlatimiz rahbari oldimizga katta vazifalarni belgilab berdi. Bu borada har bir islohot ilm-fanga asoslangan bo‘lishi kerakligi ta’kidlandi. Shu asosda yoshlarimizga buyuk ajdodlarimiz yutuqlarini zamonaviy, media texnologiyalar orqali, qo‘llanmalar va filmlar vositasida keng targ‘ib qilishimiz kerak. Buni shunchaki tarix sifatida emas, balki uni zamonamizga, bugun mamlakatimizda bo‘layotgan islohotlarga mantiqiy bog‘lab tatbiq qilishimiz zarur.

Boisi uchinchi Renessans orzusi shunchaki yaxshi niyatning o‘zi bilan amalga oshib qolmaydi. Buning uchun ilm, innovatsiya kerak. Ammo Renessans hodisalari bizning zaminda, Markaziy Osiyo hududida ildiz yoygani inobatga olinsa, bugungi yosh avlod qonida ham shu buyuk qudrat zohir, albatta. Demak, sun’iy intellekt sohasidagi yosh mutaxassislarda intellektual salohiyat bo‘lishi kerak va uni yanada ravnaq toptirishimiz shart.

Shu o‘rinda yoshlarning intellektual ko‘nikmalari qachon rivojlanadi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Javob shuki, qachonki biz ularni to‘g‘ri tarbiyalay olsak. Buning uchun esa yurtimizda zarur sharoitlar yaratib berilmoqda. Axborot texnologiyalari markazlari ochilyapti, sarmoyalar kiritilyapti, oliy ta’lim ilgarilayapti, tizimni qo‘llab-quvvatlovchi imtiyozlar berilyapti. Bu bejiz emas, albatta. Chunki imoratning mustahkamligi uyning poydevoriga bog‘liq. Poydevor qanchalik baquvvat bo‘lsa, imorat ham shunchalik umrboqiy bo‘ladi.

Bu xususda gap ketganda, hozirgi kunda yoshlar tarbiyasida ma’naviyat masalasini ham unutmasligimiz kerak. Chunki bugun dunyoda odamzod qalbi va ongini egallash uchun ko‘zga ko‘rinmas kurash ketyapti. Jahon hamjamiyati shunday bir murakkab va keskin muammolarga to‘qnash kelayotgan bir sharoitda mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish muhim vazifa sifatida belgilangani quvonarlidir. Albatta, sog‘lom, ma’naviyatli avlod tarbiyasi oson ish emas. U har bir inson, har bir oila, butun jamiyatdan jiddiy e’tibor va uzluksiz mehnat talab qiladi. Ayniqsa, mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan bugungi nozik, qaltis sharoitda bu nihoyatda dolzarbdir. Agar ma’nan va ruhan sog‘lom avlodni tarbiyalay olsak, bunday yoshlar ilm-fanda olamshumul kashfiyotlar qila oladi.

**Sanjar MIRZALIYEV,**
**TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari.**

# ELEKTR ENERGIYASI TARMOQLARI

## SOVUQ KUNLARDA BARQAROR ISHLAYDIMI?



*Oldimizda qish. Odatda salqin-qirovli kunlarda havo sovib, aholining elektr energiyasiga bo‘lgan talabi ham ortadi. Tabiiyki, bunday paytlarda joylarda chiroq o‘chishi kuzatilishi ham bor gap. Iste’molchilarni aynan kuz-qish mavsumida uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash esa eng dolzarb masalalardan biri.*

### Taraddud

Davlatimiz rahbari shu yilning 24-avgust kuni Samarqand viloyatiga tashrifi chog‘ida faollar bilan yuzma-yuz uchrashuvda mazkur masalaga alohida to‘xtalgan edi.

Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda yil yakuniga qadar amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda hududda so‘nggi besh yilda elektr energiyasi iste’moli bir yarim barobar ortgani, lekin viloyatda deyarli generatsiya yo‘qligi bois yil yakuniga borib ehtiyoj 650 mln. kVt-soat yoki o‘tgan yildagiga nisbatan uch barobar ko‘p defitsit bo‘lishi kutilayotganini tanqid qilgan edi. Shundan kelib chiqib, viloyatdagi soha mutasaddilari oldiga ishlarni to‘g‘ri tashkil etish, tizimda modernizatsiya va rekonstruksiya ishlarini kuchaytirish vazifasi qo‘yildi.

Ta’kidlash joizki, “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati Samarqand hududiy filiali tasarrufidagi mavjud nimstansiyalar, transformator punktlari va elektr uzatish tarmoqlari yordamida viloyatda jami 916 975 ta, ya’ni 869 ming 761 nafar aholi, 47 214 ta yuridik iste’molchiga elektr energiyasi yetkazib berilyapti. Hozirgi kunda uning 1 kunlik o‘rtacha sarfi 19 mln. kVt-soatni tashkil etadi.

O‘tgan yili qish mavsumida iste’molchilarning elektr energiyasiga talabi keskin oshishi kunlik elektr energiya iste’molining ham oshishiga olib keldi. Buning oqibatida ishlab turgan yuqori kuchlanishli ayrim elektr uzatish tarmoqlarining himoya qurilmalarida qisqa muddatli o‘chishlar takrorlanishi kuzatildi.

Shu bois ham faqatgina Samarqand shahar Xalq qabulxonasining o‘ziga elektr ta’minotidagi uzilishlar bilan bog‘liq 300 dan ko‘proq murojaatlar bo‘ldi. Bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida joriy yil kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha filial tomonidan joylarda kapital ta’mirlash ishlari olib borilmoqda.

— Iste’molchilarni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash maqsadida mavjud obyektlarni investitsiya dasturlari, respublika va viloyat byudjet mablag‘lari hisobidan kapital va mukammal ta’mirlash ishlari olib borilmoqda, — deydi “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati Samarqand hududiy filiali boshlig‘i Umid Nazarov. — Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha 35 — 110 kV kuchlanishli 13 ta transformator, 2941,2 kilometr 0,4 — 110 kV kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari, 1174 ta transformator punkti mukammal, shuningdek, yana ko‘plari joriy ta’mirlandi. Qo‘shimcha ravishda viloyat hokimligi tomonidan 0,4 — 6 — 10 kV kuchlanishli tarmoqlar va transformator punktlarini modernizatsiya-rekonstruksiya qilish hamda yangilash maqsadida 16,4 mlrd. so‘m ajratildi. Natijada 100 ta aholi punktida elektr energiyasi ta’minoti yaxshilandi. Ammo bu bilan tizimda muammolar to‘liq bartaraf etildi, deb bo‘lmaydi.

Umid Nazarovning aytishicha, viloyat hokimligi tomonidan yetarlicha mablag‘ ajratilgan bo‘lsa-da, ko‘p hududlarda boshlangan ishlar o‘z vaqtida yakuniga yetkazilmayapti. Qayerdadir transformator, qayerdadir beton ustunlar o‘rnatish yoki tarmoqqa ulash ishlari turli sabablar bilan cho‘zilib ketmoqda. Joriy yilda dastur va rejalar asosida boshlangan ishlarning 377 tasi hali oxiriga yetkazilmagan. Imkoniyatlarni chamalab yil yakunigacha qoldirmay barcha ishlarni tugatish choralari ko‘rilyapti.

Xususan, Samarqand shahrining Kimyogarlar qo‘rg‘onida 1,2 km. 110 kilovoltli elektr uzatish tarmog‘i qurilishi, Afrosiyob, Registon, G‘arbiy va Shimoliy nimstansiyalardagi rekonstruksiya ishlari oktyabr oyida, katta yuklamada ishlayotgan Shohi Zinda nimstansiyasida 4000 kVA transformator noyabr oyida yangilanadi.

Bundan tashqari, kuz-qish mavsumida yuz berishi mumkin bo‘lgan favqulodda avariyalarni qisqa muddatlarda bartaraf etish uchun zarur choralar ko‘rilgan va zaxira yaratildi. Shuningdek, 542 nafar mutaxassisdan iborat ta’mirlash brigadalari, o‘nta maxsus texnika, qirqdan ortiq avtotransport va mexanizmlar shay holatga keltirilgan.

Darvoqe, viloyatdagi ijtimoiy soha tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlarining minglab inshoot va binolarida hamda 3 297 ta aholi xonadonida quyosh panellari o‘rnatilib, qo‘shimcha elektr energiya ishlab chiqarish quvvati yaratildi. Bundan tashqari, Nurobod tumanida 100 megavattli quyosh elektr stansiyasi ishga tushirilib, yil boshidan buyon 184,5 mln. kVt/soat hamda Tayloq tumanida 30 megavattli gidroelektrostansiya faoliyati yo‘lga qo‘yilib, 15,2 mln. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

Yaqin istiqbolda Kattaqo‘rg‘on tumanida dastlabki bosqichda 100 MVt hamda Nurobod tumanida 100 megavattli loyihalar ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Umuman olganda, bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar, istiqbolli loyihalarning barchasi oldimizda turgan kuz-qish mavsumida aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash imkonini yanada oshirishi, shubhasiz.

**Abdulaziz YO‘LDOSHEV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# O‘Z VAQTIDA QO‘YILGAN TASHXIS — ENG YAXSHI HIMOYA

***Fenilketonuriya — irsiy kasallik bo‘lib, u yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning har to‘qqiz mingidan birida uchraydi. Ushbu xastalik bola tug‘ilishidan oldin yoki tug‘ilishi bilanoq aniqlansa, davolash samara berib, chaqaloq darddan to‘liq forig‘ bo‘lishi mumkin. Aks holda…***

### Salomatlik

— Ushbu kasallikning vaqtida aniqlanmasligi, bolaning aqliy zaifligiga olib kelishi, natijada jamiyatda yana bir tug‘ma nogironligi bor shaxs paydo bo‘lishi bilan asoratli, — deydi Navoiy viloyatidagi “Ona va bola” skrining markazi direktori Mahfuza Hamroyeva. — Tug‘uruqxonada chaqaloqlarning tovonidan qon olish orqali, tahlillar yordamida bolada ushbu xastalik bor-yo‘qligi aniqlanib, davo choralari qo‘llaniladi.

Navoiy viloyatida har yili yigirma mingdan ortiq bolalar dunyoga keladi. Hayot atalmish buyuk voqelikda yigirma ming umr daftarining oppoq sahifasi ochilib, shuncha oila orzulari gulshanida umid niholi bo‘y ko‘rsatadi. Har birida oilaning yangi a’zosi bilan orzulari ham ulg‘ayib boradi.

Afsuski, bir qator irsiy kasalliklar bola organizmida homiladorlik davridayoq yuqib, ba’zi oilalarga quvonch o‘rniga tashvish keltirishi ham mumkin.

Navbahorlik Qurbonovlar oilasida dunyoga kelgan chaqaloqda tug‘ma gipotireoz kasalligi tug‘uruqxonadayoq aniqlanib, to‘rt yil davomida olib borilgan muolajalar natijasida jismoniy hamda aqliy rivojlanishda o‘z tengqurlaridan qolishmasligiga, darddan shifo topishiga erishildi.

— Farzandimning davolanishi davomida dori vositalari to‘liq bepul berildi, — deydi Shahnoza Qurbonova. — Mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish dasturi asosida mana shu tashvishlardan qutuldik. O‘rni kelganda, bo‘lajak onalarga skrining tadbirlarini paysalga solmaslikni maslahat beraman.

Viloyatda skrining markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida so‘nggi besh yilda irsiy kasalliklar bilan tug‘ilish ikki baravar kamaygan. Ushbu tadbirni paysalga solish va boshqa muayyan sabablar tufayli esa yil boshidan buyon tug‘ilgan chaqaloqlarning 44 nafarida tug‘ma gipotireoz, 5 nafarida spinal mushak atrofiyasi singari tug‘ma nogironlikka mubtalo qiluvchi kasalliklar aniqlanib, muolajalar olib borilmoqda.

— Prezidentimizning shu yil 8-sentabrdagi “Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori onalar hamda bolalar salomatligini muhofaza qilish, tug‘ma va irsiy kasalliklarni erta prenatal va neonatal davrda aniqlash, bolalar o‘limi hamda tug‘ma nogironlikni kamaytirish, irsiy kasalliklarga chalingan bolalar tug‘ilishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega, — deya so‘zida davom etadi M. Hamroyeva. — Ushbu qarorda onalik va bolalikni muhofaza qilishning yangi tizimini yaratish bilan birga, bepushtlikning oldini olish choralari bo‘yicha ham bir qator tadbirlar belgilangan.

Sirasini aytganda, ko‘p asrlik milliy qadriyatlarimiz bardavomligini ta’minlashda homilador hamda emizikli ayollarimizga, uning bag‘rida unayotgan zurriyotga e’tibor insonni ulug‘lash kabi tamoyillarni o‘zida ifoda etadi.

**Temur ESHBOYEV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# MARHAMATDA TURIB AQSHDAGI TRANSPORT VOSITALARINI ISHGA JALB QILADI

*So‘nggi yillarda IT sohasiga bo‘lgan qiziqish tobora ortmoqda. Zero, u eng zamonaviy kasb turlaridan biri bo‘lib, bugungi kun taraqqiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Shu bois rivojlangan davlatlar ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlarni jonlantirish kun tartibidagi asosiy vazifalardan biriga aylangan.*

### Intilish

Odatda, har qanday rivojlanish shaharda, qishloqlardan olisda yuzaga keladi, deb o‘ylaymiz. Biroq Marhamat tumanida bo‘lganimizda IT sohasida erishilayotgan yutuqlarni ko‘rib, fikrimiz asossiz ekanligiga amin bo‘ldik.

— Har qanday sohani kuchaytirish uchun imkon qadar rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va o‘zlashtirish kerak, — deydi “Ershi logistics” MCHJ rahbari Ibrohimjon Erkaboyev. — Bunga Janubiy Koreyadagi ta’lim jarayoni va amaliyot davrida amin bo‘lgandim. Ukam Iskandarbek ham AQSHdagi mehnat faoliyati davomida yangi loyihalar ustida ishlab, uni yurtimizda amaliyotga joriy etmoqchi ekanligini aytganida, oilamiz bilan qo‘llab-quvvatladik. Shu tariqa 2021-yili Marhamat tumanida transport logistikasi bilan shug‘ullanuvchi jamiyatga asos soldik.

Xizmat faoliyatini IT yo‘nalishida olib boruvchi jamiyat dastlab to‘qqiz nafar xodim va o‘nta transport vositasi bilan ish boshlagan bo‘lsa, ortda qolgan juda qisqa vaqt mobaynida xodimlar soni 61 nafarga yetdi. Ular ixtiyoridagi transport vositalari esa 75 taga ko‘paydi. Aksariyat xizmatchilar bir oyda 2 ming AQSH dollari ishlab topmoqda. Bu qadar tez shakllanishning o‘ziyoq mamlakatimizda sohaga bo‘lgan ehtiyoj yuqoriligidan dalolatdir.

— Ayni paytda jamiyatimiz beshta kompaniya bilan hamkorlik qilmoqda, — deydi I. Erkaboyev. — Xodimlarimiz Marhamatda turib Amerika Qo‘shma Shtatlarida harakatlanayotgan transport vositalarini ish bilan ta’minlaydi. Qisqacha aytganda, ular yuk mashinalari uchun molni topish, ularni qisqa va kamxarajat yo‘l orqali manzilga yetkazib berishdan tortib haydovchilarning sog‘lig‘i-yu daromadigacha nazorat qiladi.

Yurtimizda tadbirkorlik faoliyatiga bo‘lgan e’tibor, qolaversa, IT sohasini rivojlantirish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar shu kabi jadallikni ta’minlab bermoqda.

— Oddiy misol, 2022-yil 22-avgust kungi “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori katta imkoniyat eshiklarini ochdi, — deydi u. — Ayniqsa, soliq tizimidagi yengilliklar soha rivojini ta’minlamoqda. Buning natijasida 2023-yilda 40 mln. so‘mlik soliq to‘lovi o‘rniga 13 mln. so‘m miqdorida to‘lovni amalga oshiradigan bo‘ldik. Iqtisod qilingan 27 million so‘m hisobiga jamiyatimiz uchun yana beshta kompyuter jamlamasini sotib olsak bo‘ladi. Demak, yaratilgan imkoniyat tufayli bir yilda xodimlarimiz sonini 5 nafarga orttirishga muvaffaq bo‘lamiz. Umuman olganda, bunday imkoniyatlar tufayli tez orada xodimlarimiz soni 300 nafarga yetkaziladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Andijon viloyatida joriy yilning birinchi yarmida 20,4 mlrd. dollarlik IT xizmati ko‘rsatilgan bo‘lib, 1,4 mln. dollarlik eksport faoliyati tashkil etildi. Bu ko‘rsatkich avvalgi natijaga nisbatan 14 barobar ortgan. Shuningdek, rezidentlar soni ham 6,6 barobar oshib, ayni paytda 21 taga yetdi. Ular tomonidan ish bilan ta’minlanganlar soni esa 540 nafar. Vaholanki, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davrida 20 nafardan iborat edi, xolos.

Xullas, bu yo‘nalishda faoliyat yuritish darajasi Toshkent shahridan keyingi ikkinchi o‘rinda turuvchi Andijon viloyatida IT sohasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda erishilayotgan yutuqlar uning ertangi muvaffaqiyatlari uchun yangi imkoniyat eshiklarini ochmoqda, desak, ayni haqiqat.

**Saminjon HUSANOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# QISHIN-YOZIN QULUPNAY PISHADI



*Namangan viloyatining Uchqo‘rg‘on tumanida darmondorilarga boy ne’mat — qulupnayni yilning istalgan faslida topish mumkin. Ayni paytda qulupnayzorlarda joriy yil hosilini to‘rtinchi bor yig‘ishtirishga kirishilgan. Ekinzorlarning katta qismi Qirg‘izistonga chegaradosh Yog‘du mahallasida joylashgan.*

### Dehqonchilik

Davlat ishidagi uzoq yillik mehnatidan so‘ng nafaqaga chiqqach, dehqonchilikning ushbu turi bilan astoydil shug‘ullanishga kirishgan Murodjon Qosimovning sa’y-harakati bilan qulupnaychilik hududning asosiy drayveriga aylandi. Ayni chog‘da u tuman bo‘yicha 500 gektardan ko‘proq maydonda yetishtirilyapti.

— “Nazira opa” fermer xo‘jaligining uch gektar yerida 5 yildan buyon qulupnay parvarishlab kelyapmiz, — deydi M. Qosimov. — Hosili yirik, pushtirang meva beradigan “Charli” navli ko‘chatlar Fransiyaniki. Har yetmish kunda pishadigan hosilini kunora yig‘ib olish mumkin. Dehqonchiligimizning o‘ziga xos jihati, bizda qish oylarida ham qulupnay pishadi. Chunki sovuq kunlar yaqinlashishi bilan yarim gektar ekinzorning ustini maxsus plyonkalar bilan berkitib, yopiq dalaga aylantiramiz. To‘g‘ri, qulupnaychilikning mehnati oson emas, biroq daromadi shunga yarasha. Har terimda 10 — 15 tonnaga yetkazib, meva teramiz. Shu ekinning o‘zidan 100 million so‘mgacha foyda olyapmiz. Bunga asalari, ko‘chat yetishtirish, ko‘kat va boshqa rezavorlar parvarishini ham qo‘shsak, manfaatdorligimiz anchagina ortadi.

E’tiborlisi, qulupnaychilik keng yo‘lga qo‘yilishi bilan Uchqo‘rg‘onda agroturizmga ham yo‘l ochildi. Mahalliy, ba’zida xorijlik sayyohlar ham Yog‘du mahallasiga kelib, bu yerda yashnab turgan ekinzorlardan hayratga tushishadi. Mirishkor ularga egatlarda tovlanib turgan sarxil mevani o‘z qo‘llari bilan terib olishni taklif qiladi. Buning gashti o‘zgacha!

Yaqinda yetmish yoshni qarshilagan Murodjon ota hali tetik. Mahalladoshlari, uzoq-yaqindan kelgan havasmandlarga qulupnaychilik sir-asrorini o‘rgatishdan sira erinmaydi. U shu kunlarda yana bir loyihani amalga oshirishga kirishgan. Qishda isitiladigan va tomchilatib sug‘orishga asoslangan mo‘jaz issiqxona qurib, bu yerda qulupnay ko‘chatlarini besh qavatli qilib joylashtirmoqchi. Bu — hosildorlik darajasi odatdagiga qaraganda besh baravar ortadi, degani.

**Qudratilla NAJMIDDINOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# QADIMIY BINOLAR OHANRABOSI

*Ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimizda 8 mingdan ziyod madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, ularning 829 tasi — Buxoroda. Ro‘yxatga kiritilib, davlat muhofazasiga olingan ushbu yodgorliklarning 102 tasi qadimiy uylar hisoblanadi. Ular boshqa osori atiqalar qatori mehmonlar hamda xorijiy sayyohlarda katta qiziqish uyg‘otib kelayotgani ham ayni haqiqat.*

### Osori atiqalar

— Buxorodagi ushbu qadimiy turarjoylar yashash uchun qulayligi, o‘ziga xos me’moriy jihatlari bilan ajralib turadi, — deydi taniqli arxeolog Y. Nekrasova. — Bilishimcha, ichkari va tashqari hovlili ko‘hna turarjoylar faqat Buxorodagina saqlanib qolgan.

Darvoqe, biz Buxoro tarixiga oid juda katta izlanishlar olib borayotgan olimani ko‘hna shaharning Pochchaqul Hoji ko‘chasida joylashgan “Usto” ijodiy mehmon uyida uchratib qoldik.

Buxorolik taniqli fotoijodkor Shavkat Boltayev tomonidan tashkil etilgan bu mehmon uyi chet ellik sayyohlar, olimlar, milliy merosimiz ixlosmandlarining doimiy manzili sanaladi.

— Mana, 51 yildirki, shu uyda istiqomat qilyapmiz, — deydi uy bekasi Umida Hikmatova. — Undan uchta qadimiy xona saqlanib qolgan. Uyimiz davlat muhofazasida. Mutaxassislar mana bu mehmonxonadagi arabiy yozuvlarni o‘qib, uning 1907-yilda qurilganini aniqlashdi. Yozuvlarning biri mehmonlar, biri Buxoro amiri, yana boshqasi esa mezbon sha’niga bitilgan iliq so‘zlardan, tilaklardan iborat. Bundan uy bunyod etilgan sana kelib chiqadi. Uyimizning ohanrabosi bor, desam, ishonavering. Shu bois xonadonimizga yetti iqlimdan kelayotgan mehmonlar qadami uzilmaydi.

Shu paytga qadar saqlanib qolgan sahni yirik ko‘hna uylardan biri — davlat arbobi, jadidchilik harakati namoyandalaridan Fayzulla Xo‘jayev istiqomat qilgan hovlidir. U 1890-yilda qurilgan. Ayni paytda bu yerda F. Xo‘jayev uy-muzeyi faoliyat ko‘rsatmoqda.

— Hovli uch qismga bo‘lingan, — deydi muzey rahbari Feruz Bahronov. — Ichki va tashqi qismdan tashqari, xizmatkorlar uchun alohida hovli bo‘lgan. O‘z navbatida, har bir hovli ikki qismga ajratilgan. Biri yozgi, ikkinchisi esa qishki uylardan iborat. Yozgi uylar quyoshga teskari holda, qo‘sh qavat derazali va yerto‘lali qilib bunyod etilgan. Bu jazirama issiqda xona haroratini mo‘tadil saqlash imkonini bergan. Uy balandligi 6 — 8 metrni tashkil etgan. Qishga mo‘ljallangan uylar balandligi esa nisbatan past. Haroratni saqlash maqsadida shunday yo‘l tutilgan, albatta. Har bir yotoqxonada tahorat uchun maxsus xona va tashnav, shuningdek, har bir hovlida quduq va tashnav bo‘lgan.



Bu ko‘hna go‘shaga ham chet ellik sayyohlarning qiziqishi katta. Zero, sharqona usulda qurilgan, Buxoro ganchkorlik san’atining eng nozik namunalari bilan mohirona bezatilgan uy kishini befarq qoldirmaydi.

— Uy bezaklari, naqshlar, qadimiy osori atiqalarni ko‘rib hayratda qoldim, — deydi fransiyalik sayyoh Merlin Herout. — Shunday qadimiy uylarni asrab-avaylab kelayotgan xalqingizga tasanno! Bunday qadimiy yodgorliklar hamrohlarimning ham yurtingizga bo‘lgan qiziqishini oshirdi.

Buxorolik yosh olim, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Shavkat Bobojonovning ta’kidlashicha, shaharning an’anaviy turarjoylari qurilishida hududning asosiy xususiyatlari — ekstremal tabiiy iqlim, quruqlik, kamsuvlik va jazirama issiq inobatga olingan. Ayni paytda murakkab qurilishga ega turarjoylar hovli berun, ya’ni tashqi hovli va hovli darun (ichki hovli)ga bo‘lingan. Voha turarjoylarining boshqa hududlarda ko‘zga tashlanmaydigan bir jihati shahnishin, ya’ni hurmatli mehmonlar uchun maxsus joylarning mavjudligidir. Martabali mehmonlar alohida xonadan turib, asosiy xonadagi tadbir, bazmlarni kuzatishgan.

Tabiiyki, qadimiy uylarni asl holida saqlash, ularni kelgusi avlodlarga yetkazish dolzarb vazifalardan. Hozir Buxoroda restavratsiya qilinayotgan 20 ta madaniy meros obyekti orasida shunday turarjoylar ham bor. Masalan, 1918-yilda barpo etilgan To‘raqulboy uyining tashqi hovlisi ayni paytda Buxoro mintaqaviy restavratsiya markazi ustalari tomonidan ta’mirlanyapti. Yana uchta shunday obyektda restavratsiya yumushlari boshlanish arafasida.

Shu bilan bir qatorda, mavjud qadimiy uylarni aniqlash, ularni bus-butun saqlash masalasi ham bor. Bu haqda bejiz to‘xtalayotganimiz yo‘q. Chamasi, ikki yil muqaddam “Xalq so‘zi”da e’lon qilingan tanqidiy maqolada ko‘hna shahar hududidagi 30-maktabgacha ta’lim tashkiloti binosi yonida qarovsiz yotgan tarixiy uy haqida ham so‘z yuritilgan edi. Uni madaniy meros obyekti sifatida davlat ro‘yxatiga olish ishlari nazarimizda cho‘zilib ketdi. Vaholanki, bu ish amalga oshirilsa, xaritada yangi bir turistik manzil paydo bo‘lardi. Qolaversa, F. Xo‘jayev uyining bir qismi zamona zayli bilan xususiy mulkka aylangan. Shu naqshinkor uy mulk egalari roziligi bilan muzey ixtiyoriga berilsa, sayyohlarni jalb qilishning qo‘shimcha imkoniyati yuzaga keladi.

Aytmoqchimizki, Buxoro viloyati va shahar hokimliklari, tegishli tashkilotlar masalaning mana shu jihati haqida o‘ylab ko‘rishsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

**Istam IBROHIMOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229.
Buyurtma G 1041. 32 669 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir Z. Xudoyshukurov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 00.10 Topshirildi — 01.30 1 2 3 4 5 6